



Xalq so'zi

O'zbekiston —
kelajagi
buguk
davlat

2024-YIL — YOSHLAR VA BIZNESNI QO'LLAB-QUVVATLASH YILI

1991-yil 1-yanvardan chiqa boshlagan • WWW.XS.UZ • E-mail: Info@xs.uz • 2024 yil 12-sentabr, № 187 (8810)

Payshanba Saytimga o'tish uchun QR-kodni telefoningiz orqali skaner qiling.



KAMBAG'ALLIKNI QISQARTIRISH UMUMMILLIY HARAKATGA AYLANADI

Prezident Shavkat Mirziyoyev raisligida 11-sentabr kuni kambag'allikni qisqartirish ishlarini keyingi sifat bosqichiga olib chiqish masalalari muhokamasi bo'yicha videoselektor yig'ilishi o'tkazildi.

Bu yo'nalish mamlakatimizda 2020-yilda boshlangan edi. O'shanda 7,5 million yoki 23 foiz aholining daromadli kambag'allik chegarasiga yetmasdi. O'tgan yillarda 3,5 million odamni daromadli qilish orqali 2023-yil yakuni bilan kambag'allik darajasi 11 foizga tushdi.

Avvalo, ijtimoiy himoya qamrovi 4,5 karra kengaytirilib, o'tgan yili 12,3 trillion so'm yo'naltirildi. Pensiya va nafaqalar miqdori ham 1,5 baravar ko'paytirildi.

Mahallada kambag'allikni qisqartirish, tadbirkorlik loyihalariga 35 trillion so'm arzon kredit, 7 trillion so'm subsidiya berildi. Mahallalarni obod qilish, bog'cha, maktab, tibbiyot, yo'l, suv va elektr infratuzilmasi uchun 120 trillion so'm ajratildi. Shuningdek, 260 ming gektar yer 800 ming aholiga dehqonchilik qilib daromad topishi uchun tarqatildi.

Yana bir misol, 2020-yildan buyon 3 milliondan 5 million so'ngacha oylik maosh oladigan ishchilar 2 barobar, 5 milliondan 7 million so'ngacha oluvchilar esa 3 barobar oshdi. Bularning natijasida kambag'allik darajasi yiliga o'rtacha 3 foizga kamayib boryapti.

Lekin bu boradagi ishlar hamma viloyat va tumanda ham bir xil emas. Masalan, o'tgan olti oyda Navoiy, Surxondaryo, Farg'ona viloyatlari va Toshkent shahrida o'zgarish bo'lmagan. 15 ta tumanda kambag'allik 20 foizdan yuqori.

16 ta tumanda aholiga bo'lib berilgan yerlarda 2-3-martadan hosil oliingani hisobiga kambag'allik 2 karra kamaygan. Lekin 14 ta tumanda o'zgarish sezilmayapti.

Prezidentimiz ta'kidlaganidek, kambag'allikni faqat pul tarqatish, nafaqa to'lash bilan hal qilib bo'lmaydi. Buning uchun kambag'allik oila a'zolarini o'qitish, kasbga o'rgatish va ish bilan ta'minlash muhim.

Bugungi kunda korxonalarda 250 mingta vakant bor. Lekin kambag'allik oilalarning 35 foiz ishga layoqatli a'zolarida bilim va ko'nikma kam. Yana ayrimlari surunkali kasalliklar tufayli tayinli ishlay olmayapti. Kambag'allik oilalarning

83 foizida tomorqa bor, lekin suv, elektr va yo'l bilan bog'liq muammolar qiyinchilik tug'diryapti.

Yig'ilishda shu kabi masalalar atroflicha tahlil qilinib, yangi vazifalar belgilandi.

Davlatimiz rahbari keyingi yillar uchun "Kambag'allikdan farovonlik sari" dasturi tayyorlanayotganini ma'lum qildi. Unda yettita imkoniyat va mas'uliyat tamoyili asosida O'zbekistonning navbatdagi yangi yondashuvlari belgilab berildi.

Ijtimoiy himoya milliy agentligi hokimliklar bilan birga bu yil har bir mahallani to'liq xatlovdan o'tkazib, kambag'allik oilalar "portreti"ni ishlab chiqadi. Kambag'allik oila bo'yicha individual dastur bo'ladi. Iqtisodiy kompleks oilalarni kambag'allikdan olib chiqish bilan shug'ullanadi. Bunda eng katta mas'uliyat tuman hokimlari va sektor rahbarlari zimmasida bo'ladi.

Odamlarning ishi yurishishi mahallalarda sharoitga ham bog'liq. Shu bois kelasi yili mahallalar infratuzilmasini rivojlantirishga barcha manbalardan 1,6 milliard dollar ajratiladi. Buning bir qismi, avvalo, eng og'ir 300 ta mahallada suv nasoslari va quyosh panellari o'rnatishga beriladi. Yana 500 ta mahallada elektr, yo'l, internet va boshqa infratuzilma masalalari hal etiladi.

Bugun yurtimizda kamida 50 ta ish o'rni yaratgan 9 ming 200 ga yaqin tadbirkorlar bor. Ularning rejalarini qo'llab-quvvatlash, faoliyatini kengaytirib, yana ishchi olishi mumkin.

Masalan, Andijon viloyatidagi 58 ta parranda korxonasi tuxum yetishtirishga 10 ming ehtiyojmand aholini jalb qilish, 660 ta baliq xo'jaligi kooperatsiya orqali yana shuncha ish joyi yaratish tashabbusini bildirgan.

Davlatimiz rahbari bunday loyihalarni moliyalashtirish bo'yicha yangi tizim qilish va boshqa hududlarda ham kengaytirish yuzasidan topshiriqlar berdi.

Ikki yil avval Prezident Farmoni bilan umumiy ovqatlanish sohasidagi tadbirkorlarga ijtimoiy soliqdan imtiyoz berilgan edi. Buning natijasida

qator korxonalar Toshkent, Samarqand va Andijonda 2 ming odamni ishli qildi. Shu imtiyoz yana 2 yilga uzaytirib berilsa, tadbirkorlar yana o'n minglab ehtiyojmand aholini ish bilan ta'minlashga tayyor.

Sanoatda eng ko'p ish o'rni yaratadigan tarmoq — to'qimachilik. Bu soha tadbirkorlari ham ikki yil avval tayyor trikotaj, bo'yalgan mato va gazlama korxonalariga ijtimoiy soliqdan berilgan imtiyozni uzaytirib berishni so'ragan.

Aholi bandligidagi ahamiyatini inobatga olib, mutasaddilarga bu sohalar imtiyozlarni uzaytirish bo'yicha taklif kiritish topshirildi.

Agar korxonalar kambag'allik aholini band qilsa, o'sha ishchiga ijtimoiy soliqdan imtiyoz yana uch yilga saqlanib qoladi. Ushbu imtiyoz nafaqat to'qimachilikka, balki barcha sohadagi korxonalariga beriladi. Bu orqali to'qimachilik, qurilish materiallari, charm-poyabzal, elektr texnikasi, oziq-ovqat, chorvachilik va qurilish tarmoqlarida yuz minglab kambag'allik aholini ishli qilish mumkin.

O'tgan yillarda 260 ming gektar yer 800 ming aholiga dehqonchilik uchun ajratilgan edi. Endi yana 50 ming gektar yer 100 mingta kambag'allik oilaga bo'lib berilishi aytiladi.

Ushbu yerlarda "kompaniya — kooperativ — dehqon xo'jaligi" tamoyili asosida dehqonchilik va bog'dorchilik tashkil etiladi. Bunda, Xitoy tajribasi asosida, yerdan uch xil daromad oladigan tizim qilinadi:

1) qishloq xo'jaligi mahsuloti yetishtiruvchi va eksport qiluvchi katta kompaniya kambag'allik oilalardan yerni iklilamchi ijaraga oladi;

2) yoki yer egalari ulushdor sifatida kooperatsiyaga birlashib, kompaniyalardan buyurtma oladi va topilgan daromad ular o'rtasida taqsimlanadi;

3) har ikki holatda ham ushbu aholi yerda o'zi mahsulot yetishtirib, buning uchun oylik oladi.

Yana kambag'allik oila o'ziga berilgan yerdan yanada samarali foydalanib, oylik maosh olish bilan birga ijara yoki dividenddan daromad

ko'radi. Kompaniya esa bir konturda bir mahsulot yetishtirib, sifat va tannaxrdan yutadi.

Bandlik loyihalarini amalga oshirishda mikromoliya xizmatlari ham muhim va bu boradagi imkoniyatlar kengaymoqda.

Endi 2024-2025-yillarda odamlar o'zini o'zi band qilishi, kichik va o'rta tadbirkorlik bilan shug'ullanishi uchun mikroreditlar ajratishga 10 trillion so'm beriladi. Shuningdek, kambag'allik oilalarga 30 million so'ngacha uskuna, ko'chma do'kon, motoroller, skuter kabi vositalar 5 yilda bo'lib to'lash sharti bilan beriladi. Kambag'allik oila farzandlariga kompyuter sotib olish uchun 5 yilga 2 yillik imtiyozli davr bilan foizsiz kredit ajratiladi.

Savdo-sanoat palatasi huzurida tadbirkorlarga ishchi topib, ularni tayyorlab beradigan markaz tashkil qilinadi. Kambag'allik oila a'zolariga korxonaga talabga mos ko'nikmalar o'rgatilib, ishga joylashtiriladi.

Har bir kambag'allik oilada, ayniqsa, xotin-qizlar orasida oliy ma'lumotlilar bo'lishiga alohida e'tibor qaratiladi. Buning uchun ular foizsiz ta'lim kreditlari, grantlar va boshqa moliyaviy yordamlar orqali qo'llab-quvvatlanadi.

Umuman, davlatimiz rahbari bu maqsad juda keng ko'lami ekanini, unga barcha hissa qo'shishi kerakligini ta'kidladi.

Bundan buyon kambag'allikni qisqartirish umummilliy harakatga aylanadi. Hukumatdan tortib tuman tashkilotigacha barcha bo'g'indagi rahbarlarning kundalik ishi oilalarni kambag'allikdan olib chiqish bo'lishi kerak. Bu borada nazorat ham, so'rov ham qattiq bo'ladi, — dedi Shavkat Mirziyoyev.

Yig'ilishda Bosh vazir o'rinbosari, viloyat va tuman hokimlari axborot berdi. Kambag'allik oilalar uchun ajratilayotgan mablag'larning manzilligini va samaradorligini oshirish, mas'ullarning boradagi ishlarini muhokama qilib, muammolarni hal etib borish yuzasidan vazifalar belgilandi.

O'zA.

Mehmet JENGIZ: O'zbekiston — xorijiy investitsiyalarimiz geografiyasining markazi

O'zbekistonning xalqaro hamkorlari orasida Turkiya alohida o'ringa ega. Madaniyat va til, ma'naviy qadriyatlar, o'zbek va turk xalqlari o'rtasidagi yaqin qarodoshlik rishtalari hozirgi bosqichda samarali aloqalarni rivojlantirish uchun mustahkam poydevor bo'lib xizmat qilmoqda. Albatta, hamkorlikning asosiy yo'nalishlaridan biri — bu iqtisodiy yo'nalish. Turkiyalik investorlar ikki xalq ravnaqi, ayni chog'da O'zbekiston taraqqiyotiga salmoqli ulush qo'shmoqda.

"Dunyo" axborot agentligi muxbiri "Cengiz Holding" kompaniyasi direktorlar kengashi raisi, "Do'stlik" ordeni sohibi Mehmet Jengiz bilan turk investorlarining O'zbekistonga bo'lgan qiziqishi va intilishi haqida suhbatlashdi.

Intervyu

— Jengiz janoblari, suhbatimiz avvalida "Cengiz Holding" kompaniyasi haqida so'ramoqchi edik. Kompaniya konsepsiyasi va rejalarini haqida ma'lumot bersangiz. Tabiiyki, eng avvalo, barchani O'zbekistonda amalga oshirilayotgan loyihalar qiziqtiradi.



— Turkiyada tashkil etilgan "Cengiz Holding" sanoat korxonasi 45 yildan buyon faoliyat yuritib kelmoqda. Bugungi kunda korxonada 43 ming kishi ishlaydi. Energetika, konchilik, qurilish va xizmatlar sohalarida tobora o'sib borayotgan kompaniyamiz orqali Turkiya iqtisodiyotini yanada mustahkamlash uchun kechayu kunduz harakat qilmoqdamiz. Tadqiqot va texnologiyalarni rivojlantirishga kiritgan investitsiyalarimiz yordamida biz ishlab chiqarishni odamlarga va atrof-muhitga, ya'ni "yashil"

iqtisodiyotga yo'naltirishga ko'mak beryapmiz. Bu jarayonda dunyoning ilg'or tajribasiga e'tibor qaratib, biz ularni birinchi bo'lib tatbiq etyapmiz. Turkiyaning yagona kobalt moddasi ishlab chiqaruvchisi hisoblangan korxonamiz, uni aylanma iqtisodiyotning bir qismi sifatida mis konlari chiqindilaridan metallarga qayta ishlov berish orqali yaratadi. Bu usulda kobalt moddasini ishlab chiqarish dunyoning boshqa mamlakatida yo'q.



Muloqot

YURTIMIZNING XALQARO INDEKSLARDAGI O'RNI YUQORILAB BORAYOTGANI E'TIROF ETILDI

Oliy Majlis Senati Raisi Tanzila Norboyeva BMT Taraqqiyot dasturining O'zbekistondagi doimiy vakili Akiko Fudzii xonim bilan uchrashdi.

Muloqotda O'zbekistonning Barqaror Rivojlanish maqsadlariga erishish bo'yicha chora-tadbirlarni amalga oshirishdagi faol ishtiroki hamda istiqboldagi taklif va tashabbuslarga to'xtalib o'tildi. Mamlakatimizda olib borilayotgan ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy sohalaridagi va ta'lim yo'nalishidagi islohotlar hamda gender tenglik masalasiga doir ijobiy o'zgarishlar haqida fikr almashildi.

O'zbekistonning xalqaro indekslardagi o'rni yuqorilab borayotgani e'tirof etilib, mazkur yo'nalishda ham o'zaro hamkorlik masalalari muhokama qilindi.

Bundan tashqari, mahalliy Kengashlar va xalq deputatlari faoliyatini kuchaytirishga qaratilgan o'quv dasturlari hamda uslubiy qo'llanmalarni hamkorlikda ishlab chiqish masalalariga e'tibor qaratildi. "Xalq so'zi".

BOSH MAQSAD — O'ZARO ALOQALARIMIZNI YANADA MUSTAHKAMLASHDAN IBORAT

Forum oldidan



Ayni chog'da ko'hna Xiva zamini yana bir nufuzli anjumanga mezbonlik qilmoqda. Ya'ni bugun va ertaga ushbu zaminda "Markaziy Osiyo davlatlari parlamenti va hokimiyat vakillik organlarining mintaqani ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishda tutgan o'rni" mavzuidagi forumni o'tkazish ko'zda tutilgan bo'lib, unda mintaqamizdagi barcha davlatlar — Qozog'iston, Qirg'iziston, Tojikiston, Turkmaniston va O'zbekiston parlamentlari palatalari rahbarlari, Yoshlar parlamentlari, do'stlik guruhlari vakillari va boshqa delegatsiya a'zolari ishtirok etmoqda. Zero, bundan ko'zlangan bosh maqsad ham o'zaro aloqalarimizni sifat jihatdan yangi bosqichga ko'tarishdan iborat.

Nufuzli forum oldidan Oliy Majlis Senati vakillari mintaqada davlatlari o'rtasida o'rnatilgan barcha sohadagi aloqalar va buni yanada kuchaytirishda shu kabi anjumanlarning ahamiyati xususida o'z fikrlarini bildirishdi.

2- sahifaga qarang.

INNOVATSION ISHLANMALAR VA ILG'OR TEXNOLOGIYALAR NAMOYISHI

Kecha poytaxtimizdagi "O'zbekspomarkaz" markaziy ko'rgazmalar majmuidagi "To'qimachilik uskunalari va texnologiyalari — CAITME — 2024" 15-Markaziy Osiyo xalqaro ko'rgazmasi ochildi.



Akmal MUHAMMADOV olgan surat.

"Itexa Exhibitions" xalqaro ko'rgazmalar kompaniyasi va qator tashkilotlar hamkorligida tashkil etilgan mazkur ko'rgazmada O'zbekiston, Avstriya, AQSH, BAA, Belgiya, Buyuk Britaniya, Germaniya, Ispaniya, Italiya, Janubiy Koreya, Turkiya, Fransiya kabi yigirmadan ortiq

davlatlardan 403 ta kompaniya innovatsion ishlanmalar hamda texnologiyalar, yangi uskunalar va keng turdagi butlovchi qismlarni namoyish etayotir.

Masalan, Shveysariyaning tola hamda kalava iplarni qayta ishlash tendensiyalarini yaratuvchi "Saurer"

kompaniyasi mamlakatimizda ilk marotaba "Autoairo" yuqori tezlikdagi texnologiyasi, yangi "Zinser 51" halqa yigiruvchi mashinasi va "Autocard SC 7" ni ishtirokchilar e'tiboriga havola qilyapti. E'tiborlisi, ushbu xalqaro namoyishda bu kabi muhim, energiya tejaydigan, yuqori samarali yangiliklar deyarli har bir standdan o'rin olgan.

Ko'rgazma

Bunday xalqaro ko'rgazmada birinchi marta ishtirok etayotgan xorijlik tadbirkorlar ham bor. Shulardan biri Turkiyaning "Optimum Digital Planet" kompaniyasi.

— 1994-yilda keng formatli poligrafia sanoatida o'z faoliyatimizni boshlaganmiz va

kompaniyamiz to'qimachilik, gilamlar, uy dekoratsiyasi kabi turli sohalar uchun ilg'or bosma tizimlarni ishlab chiqaruvchi global brendga aylandi, — deydi uning rahbari Taner Guven. — Keyingi yillarda mamlakatimizda amalga oshirilayotgan shiddatli islohotlar qiziqishimizni yanada oshirdi. O'zbekistonda distribyutorlarimiz mavjud. Maqsadimiz bugungi tadbirda sheriklar topish va ular bilan hamkorlikni yo'lga qo'yishdan iborat. Bunga esa ushbu xalqaro ko'rgazma qulay fursat yaratdi.

Ta'kidlash joizki, ishlabarmon doiralari o'rtasida o'zaro muloqot platformasini yaratib berayotgan mazkur ko'rgazma 14-sentabrga qadar davom etadi.

"Xalq so'zi".

JORIY YILDA 38 TRILLION SO'MLIK QURILISH MATERIALLARI ISHLAB CHIQRILADI

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 3-apreldagi qarori ijrosi doirasida:

Fakt va raqamlar

— 2024-2025-yillarda qiymati 4,5 milliard dollarlik 529 ta loyiha amalga oshiriladi. Natijada 25,6 mingta ish o'rni yaratiladi.

Sohadagi islohotlar izchil davom ettirilishi natijasida joriy yil yakuni bilan 38 trillion so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishga erishiladi. Jumladan,

- 898 ming dona keramik sanitar-texnik buyumlar;
- 52 mln. kv. m. keramik plitka;
- 16,7 mln. tonna sement;
- 90 mln. kv. m. gipsokarton plitalari;
- 2,4 mln. tonna temir-beton buyumlar;
- 5,6 mln. kv. m. linoleum kabi mahsulotlar



Manba: "O'zsanoatqurilishmateriallari" uyushmasi.

BOSH MAQSAD – O‘ZARO ALOQALARIMIZNI YANADA MUSTAHKAMLASHDAN IBORAT

Ravshanbek ALIMOV,
Oliy Majlis Senatining Xalqaro munosabatlar, tashqi iqtisodiy aloqalar, xorijiy investitsiyalar va turizm masalalari qo'mitasi raisi:



– Ma'lumki, keyingi yillarda Markaziy Osiyo ijtimo-iqtisodiy taraqqiyoti jihatidan muhim mintaqaga aylanmoqda. U ulkan salohiyatga, jumladan, boy tabiiy resurslarga va strategik joylashuvga egaligi bilan ham ajralib turadi.

Globallashtirish va mamlakatlarning o'zaro bog'liqligi tobora kuchayib borayotgan hozirgi sharoitda Markaziy Osiyoda parlamentlararo komissiyalar va do'stlik guruhlarini taqozo etmoqda. Negaki, bugun biror-bir masalani hech bir davlat alohida-alohida hal etolmaydi. Faqat birgalikdagi sa'y-harakatlar muammolar yechimida eng to'g'ri yo'l.

Parlamentlararo komissiyalar va do'stlik guruhlarini faoliyatini yanada kuchaytirish uchun quyidagi jihatlarga e'tibor qaratish muhim, deb bilamiz:

birinchidan, mintaqa davlatlari parlamentlari o'rtasidagi uchrashuv va muloqotlarni muntazam yo'lga qo'yish kerakki, bu pirovardida dolzarb masalalarni muhokama qilish, birgalikdagi strategiyalarni ishlab chiqishda muhim ahamiyat kasb etadi;

ikkinchidan, savdo va investitsiyalar sohasidagi o'zaro hamkorlikni zamon talabi darajasiga olib chiqish zarur. Bu borada parlamentlardan qulay ishbilarmonlik muhitini yaratishga yo'naltirilgan yangi qonunchilik tashabbuslari hamda samarali parlament monitoringini joriy etish talab qilinadi;

uchinchidan, kadrlarning malaka darajasini oshirish va innovatsion g'oyalarni

ilgari surish imkonini beruvchi ta'lim va ilmiy tadqiqotlar sohasida o'zaro manfaatli hamkorlikni yo'lga qo'yish bugun har qachongidan ham muhim;

to'rtinchidan, Barqaror rivojlanish maqsadlariga erishish uchun, eng avvalo, birgalikdagi intilishlarni talab etadigan ekologik masalalarga alohida e'tibor qaratish kerak bo'ladi.

Bularning barchasini izchil amalga oshirishda, albatta, parlamentlararo komissiyalar, do'stlik guruhlarini muhim o'rin tutadi. Ammo ular faoliyatini o'zaro muvofiqlashtirmasdan turib kutilgan natijalarga erishish mushkul. Ya'ni zamonamiz Markaziy Osiyo parlamentlararo komissiyalari va do'stlik guruhlarini faoliyatini jadallashtirish uchun o'zaro ishonchga asoslangan kompleks yondashuvni taqozo etayotir.

Ishonamizki, bu borada bugun o'z ishini boshlaydigan mintaqaviy forum muhim platforma bo'lib xizmat qiladi. Mazkur tadbir doirasidagi ochiq va mazmunli muhokamalar, bu boradagi kelishuv va tashabbuslar ushbu tuzilmalar faoliyatini boyitadi va natijadorligini oshiradi.

Gulnora MA'RUFOVA,
Oliy Majlis Senatining Xotin-qizlar va gender tenglik masalalari qo'mitasi a'zosi:



– Prezident Shavkat Mirziyoyev o'z faoliyatiga kirishgan dastlabki kunlardan Markaziy Osiyo davlatlari bilan aloqalarini yo'lga qo'yish va kuchaytirishni O'zbekiston tashqi siyosatining ustuvor yo'nalishi sifatida ilgari surgan edi. Bu amalda qanday natija berayotganini bugunga kelib barchamiz ko'rib, bilib turibmiz.

Mintaqada ancha vaqtdan beri yig'ilib qolgan masalalar birgalikda hal qilina boshlandi. O'zaro bordi-keldir o'z o'ziga qaytdi. Markaziy Osiyo davlatlari azaldan bir-biri bilan qardosh, qarindosh el bo'lgan. Bu mamlakatlarning ittifoqdoshlikdagi taraqqiyotiga erisha oladi. Bu masalaga teran anglagan davlatimiz rahbarining oqilona siyosati bois barcha sohadagi o'zaro hamkorlik, ittifoqdoshligimiz mustahkamlanib bormoqda. Va aynan Prezidentimiz tomonidan har yili 5 ta mamlakatning birida an'anaviy davlatlar rahbarlari sammiti (Maslahat uchrashuvi)ni o'tkazib borish tashabbusi ilgari surilgani ham kechagidek yodimizda. Bugun ushbu tashabbus mintaqamizdagi davlatlar tomonidan qo'llab-quvvatlanib, o'zaro muloqot maydoni paydo bo'ldi.

Mamlakatlarimiz o'rtasidagi munosabatlarni rivojlantirish va yanada mustahkamlashda hamda oliy darajada erishilgan kelishuvlarning ijrosini ta'minlashda parlament nazorati institutining imkoniyatlari salmoqli. Shu bois keyingi

yillarda mazkur masalaga alohida e'tibor qaratilayotir. Xivada tashkil etilayotgan Markaziy Osiyo davlatlarining ikkinchi forumi buning yorqin misoli. Yodingizda bo'lsa, 2020-yilda O'zbekiston yaxshi bir tashabbus bilan chiqqandi. Bu mintaqamizdagi xotin-qizlarning barcha muammosini hal etishda parlamentdagi ayollar salohiyati va imkoniyatlaridan foydalanish tashabbusi bo'lib, u ham bugun o'z samarasini beryapti.

Aniq aytadigan bo'lsak, mintaqamiz parlamentlaridagi opa-singillarimiz o'z muammolarini turli xalqaro tashkilotlar orqali ilgari surmoqda va ularga birgalikda yechimlar izlanmoqda. Markaziy Osiyo yetakchi ayollar muloqoti ham ana shunday urinishlar tufayli maydonga kelganligi barchaga ma'lum. Hozirga kelib mazkur muloqot mintaqamizdagi parlamentariy ayollar o'rtasida rivojlantirish, dolzarb masalalarni hamda muammolarni birgalikda ko'tarish va hal etishda muhim platformaga aylanib ulgurdi.

Xiva shahri mezbonlik qilayotgan ushbu forum esa mintaqamizdagi barcha davlatlar parlamentlari vakillari uchun o'zaro tajriba almashish, umumiy muammolarga birgalikda yechim topish, eng muhimi, Markaziy Osiyo davlatlari o'rtasidagi aloqalarni sifat bosqichiga ko'tarishda o'ziga xos muloqot maydoni vazifasini o'taydi.

Behzod TO'XTAMURODOV,
Oliy Majlis Senati huzuridagi Yoshlar parlamenti raisi:



– Ochig'i, biz, yosh parlamentariylar ushbu forumga bir nechta maqsadlar bilan kelganmiz. Eng avvalo, Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlari tashabbuslarini yoshlar darajasiga olib tushishni asosiy maqsad qilganmiz. Bu mintaqada davlatlari yetakchilari tashabbuslari, ular o'rtasida erishilgan turli kelishuvlar va imzolangan bitimlar ijrosini ta'minlash jarayoniga mintaqamiz yoshlarini yanada keng jalb etishni anglatadi. Buning uchun esa mintaqamiz yoshlarining o'zaro hamkorligini yangi bosqichga ko'tarish hamda ularning birgalikdagi turli loyihalarini ishlab chiqish va hayotga tatbiq qilish talab etiladi. Bo'lajak forum bu borada ayni muddaodir.

Ikkinchi maqsadimiz esa birinchisi bilan uzviy bog'liq. Markaziy Osiyo mintaqasini iqtisodiy-ijtimoiy rivojlantirishda yoshlar o'rni qanday va qayerda bo'lishi kerakligini aniq ko'rsatishdan iborat. Biz ana shundan kelib chiqib forum doirasida maxsus yoshlar rezolyutsiyasini ishlab chiqishni vazifa qilib olganmiz. Mazkur rezolyutsiya parlamentlarga kiritiladi va ularning xulosalari olinadi. Albatta, ushbu rezolyutsiya butun mintaqamiz yoshlarining o'ziga xos ovozi bo'lib jaranglaydi, degan umiddamiz.

Yana bir maqsadimiz esa

yurtimizda yosh parlamentariylar uchun yaratib berilgan shart-sharoitlar bilan mintaqamiz yoshlarini yaqindan tanishtirish bilan bog'liq.

Bilasiz, Yoshlar parlamenti 2020-yilda davlatimiz rahbari tashabbusi bilan tuzilgan bo'lib hozirgi paytda har ikkala palata huzurida samarali faoliyat olib bormoqda. Buni hozirga qadar Markaziy Osiyo hamda MDH davlatlari, shuningdek, Yevropa Ittifoqining yosh parlamentariylari bilan o'zaro aloqalar yo'lga qo'yilgani ham tasdiqlab turibdi. Endigi bosqichda mintaqamiz yoshlari bilan aloqalarni yanada kuchaytirishni niyat qilganmiz.

O'ylaymizki, bo'lajak forum bu borada bizga keng imkoniyatlar beradi. Ya'ni bu yerda qo'shni davlatlar yoshlariga, qolaversa, ishtirokchilarga O'zbekistonda yosh parlamentariylar uchun yaratib berilgan sharoitlar bo'yicha taqdimot o'tkazmoqchimiz. Ayni chog'da ularning bu boradagi tajribalarini o'rganamiz.

“Xalq so'zi”.

Bojxona amaliyotiga zamonaviy yondashuv

Mamlakatimizda bojxona ma'murchiligini sifat jihatdan yangi bosqichga olib chiqish, bojxona tartib-taomillarini amalga oshirishda zamonaviy raqamli texnologiyalarni joriy etish bo'yicha tizimli ishlar olib borilmoqda.

Fikr



Albatta, ko'riyotgan chora-tadbirlar e'tiborga molik. Biroq amaliyotda deklaratsiyalash bo'yicha xizmat ko'rsatish bozorida tashqi iqtisodiy faoliyat ishtirokchisi bilan deklaratsiyalovchi shaxs o'rtasida shartnoma tuzmasdan faoliyat olib borish hollari kuzatilib kelayotir. Shuningdek, tashqi iqtisodiy faoliyat ishtirokchisi nomidan bojxona yuk deklaratsiyasini to'ldirib, bojxona organlariga taqdim etilgan deklaratsiya bo'yicha aniqlangan xato va kamchiliklar uchun tashqi iqtisodiy faoliyat ishtirokchisini javobgarlikka tortishda muammoli holatlar ham uchramoqda. Xususan, tashqi iqtisodiy faoliyat ishtirokchisi nomidan bojxona yuk deklaratsiyasini boshqa shaxs to'ldirishi, biroq deklaratsiyaning to'g'riligi uchun javobgar shaxs tashqi iqtisodiy faoliyat ishtirokchisi bo'lgani bois u o'zi bilmagan holda boshqa shaxs tomonidan yo'l qo'yilgan xatolik uchun javobgar bo'lib qolmoqda.

Jahon bojxona tashkilotiga a'zo bo'lgan yuzdan ortiq davlatlar bojxona idoralari o'rtasida o'tkazilgan so'rov natijalariga ko'ra unda ishtirok etgan 85 foiz mamlakatlarda qonunchilik muvofiq bojxona brokerlari faoliyatini amalga oshirish bojxona organlari tomonidan regulyativ funksiyalar asosida belgilangan mezonlarga mos bo'lgan shaxslarga ruxsat berilishi (litsenziyalash, ro'yxatga olish yoki xabardor qilish orqali) qayd etilgan.

Xalqaro tajriba shuni ko'rsatadiki, Yevropa Ittifoqi davlatlarida o'z majburiyatini bojxona organlariga sug'urtalagan yuridik shaxslar, Yevroosiyo iqtisodiy ittifoqi davlatlarida bojxona organlari reestrda ro'yxatdan o'tgan "bojxona vakili", Janubiy Koreyada esa litsenziya asosida bojxona brokerlari faoliyat yuritadi.

Aytish joizki, xalqaro kuryerlik jo'natmalarini yetkazib berish faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar uchun aniq talablar va ularning maqomi belgilanmagani natijasida ayrim tadbirkorlik subyektlari tomonidan ushbu faoliyat bo'yicha xorijiy davlatning kuryerlik tashkilotlari bilan shartnoma tuzgan bo'lsa-da, soliq va bojxona to'lovlari to'lashdan qochish maqsadida yuridik shaxs sifatida qisqa muddatlarda korxonalarini ochish va yopish holatlari kuzatilmoqda.

Zafar XUDOYBERDIYEV,
Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputati.

EHTIYOJMAND FUQAROLARGA MEHRIBONLIK

Xalqimiz azaldan yordamga muhtoj, imkoniyati cheklangan insonlarga e'tibor va g'amxo'rlik ko'rsatishni jamiyatda tinchlik, do'stlik, bag'rikenglik va hamjihatlikni mustahkamlashga xizmat qiladigan eng muhim qadriyatlardan biri sifatida e'zozlab keladi.

Inson qadri uchun

Shu ma'noda aytganda so'nggi yillarda yurtimizda imkoniyati cheklangan fuqarolarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash borasidagi davlat siyosati yangi bosqichga ko'tarilmoqda. Bu jarayonda nogironligi bo'lgan shaxslarning huquqlarini ta'minlash, ularning orzu-istaklarini ro'yobga chiqarish bo'yicha muayyan ishlar amalga oshirilayotir. Xususan, ularga boshqa fuqarolar bilan teng ravishda o'z huquqlari va erkinliklarini ro'yobga chiqarish imkoniyatini beruvchi qo'shimcha shart-sharoitlari yaratish maqsadida qonunchilik yanada takomillashtirilmoqda. Ayni sohadaqiy amaliy harakatlar natijasida nogironligi bo'lgan shaxslarning jamiyatdagi mavjud imkoniyatlaridan foydalanish, harakatlanish, sog'liqni saqlash, ta'lim, bandlik, reabilitatsiya, ijtimoiy-siyosiy hayotda ishtirok etish bilan bog'liq huquqlari ta'minlanayotir.

Davlatimiz rahbarining ushbu masala bo'yicha muhim qaror va farmonlari qabul qilinishi, "Inson qadri uchun" tamoyili asosida yangi O'zbekistonda inkluziv rivojlanish, ya'ni aholining barcha qatlami uchun teng huquq va imkoniyatlarni ta'minlashga qaratilgan keng ko'lami islohotlar amalga oshirilayotgani ularni umidsizlik va ishonchsizlik kayfiyatidan xalos qilish, hayotga intilishni oshirishda muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Yangi tahrirdagi Konstitutsiyada mehnatga layoqatsiz va yolg'iz keksalar, nogironligi bo'lgan shaxslar hamda aholining ijtimoiy jihatdan ehtiyojmand boshqa toifalarining huquqlari davlat himoyasida ekanligi mustahkamlab qo'yilgan. Ya'ni davlat nogironligi bo'lgan shaxslarning ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy sohalar obyektleri hamda xizmatlaridan to'laqonli foydalanishi uchun shart-sharoitlari yaratishi, ularning ishga joylashtirishiga, ta'lim olishiga



natijalarni qo'lga kiritib, Vatanimiz bayrog'ini baland ko'tarmoqda. Masalan, yaqinda Fransiya poytaxti Parij shahrida o'tkazilgan Paraliimpiya o'yinlarida O'zbekiston vakillari 10 ta oltin, 9 ta kumush va 7 ta bronza medallarini qo'lga kiritib, umumijamoa hisobida 13-o'rinni egalladi.

Prezidentimiz tomonidan shu yil 5-sentabr kuni imzolangan "Nogironligi bo'lgan shaxslarning huquqlari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuniga qo'shimcha va o'zgartirishlar kiritish haqida"gi Qonun nogironligi bo'lgan shaxslarning huquqlari himoya qilinishini ta'minlashga qaratilgani bilan ahamiyatlidir.

Binobarin, mazkur hujjat bilan nogironligi bo'lgan shaxslarning qonuniy huquq, manfaatlarini himoya qilish, ularning to'laqonli hayot kechirishini ta'minlash uchun mutlaqo yangi tizim yaratilib, u davlatning nogironligi bo'lgan shaxslarga nisbatan munosabati, mas'uliyati yangi darajaga ko'tarilayotganini yaqqol namoyon etdi, desak, ayni haqiqatdir.

Jumladan, "Nogironligi bo'lgan shaxslarning huquqlari to'g'risida"gi Qonunga kiritilgan o'zgartirishlarga muvofiq aholining ushbu toifadagi qatlamining odil sudlovdan foydalanish, saylash va

saylanish, referendumda ishtirok etish, shuningdek, ta'lim olishga bo'lgan huquqlarini ta'minlash uchun qo'shimcha shart-sharoitlar yaratilishi nazarda tutildi.

Nogironlar huquqlari to'g'risidagi Konvensiyaga asosan "Nogironligi bo'lgan shaxslarning huquqlari to'g'risida"gi Qonun nogironligi bo'lgan shaxslar bilan muloqot qilish uchun qulay muloqot shakllarini, shuningdek, ijtimoiy infratuzilma obyektlarini nogironligi bo'lgan shaxslarning ularga moneliksiz kirishi uchun moslashtirish asoslarini belgilovchi normalar bilan to'ldirildi.

Umuman olganda, bugun yurtimizda imkoniyati cheklangan insonlarni zarur bilim va kasb-hunarlarini egallab, barcha sohada faol ishtirok etishi uchun bor kuch, imkoniyatlar safarbar qilinmoqda. Mazkur qonun esa inson huquqlari va erkinliklari sohasidagi umumiy tirof etilgan xalqaro normalar va standartlarni milliy qonunchilikka implementatsiya qilish orqali nogironligi bo'lgan shaxslarning huquqlari himoya qilinishini ta'minlashga xizmat qiladi.

Adham NAZIRQULOVA,
Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputati.

boshlangan va tayyorgarlik ko'rilgan. Xususan, davlat tibbiy sug'urtasi tizimini shu yil 1-oktabrdan boshlab Toshkent shahri va Sirdaryo viloyatida, 2025-yil 1-yanvardan Qoraqalpog'iston Respublikasida joriy qilish taklif etilmoqda.

Buning uchun 2024-yil yakuniga qadar "Elektron poliklinika" va "Elektron shifoxona" axborot tizimlari amaliyotda qo'llanishi, tibbiyot xodimlari ulardan foydalanishi bo'yicha o'qitilib, muassasalar zarur texnika va tarmoq quurilmalari bilan jihozlanishi yangi O'zbekistonda inson salomatligini mustahkamlashga qaratilgan yuksak e'tiborning yorqin namunasi, desak, yangilashmaymiz.

Ushbu tizimning ahamiyati shundaki, tibbiyotda natijaga asoslangan moliylashtirish usullari tatbiq qilinadi. Eng muhimi, sug'urta doirasida tibbiy xizmatlarni ko'rsatish va dori vositalarini taqdim etish Davlat budjeti hisobidan amalga oshiriladi, aholidan qo'shimcha to'lov undirilmaydi.

Muxtasar aytganda, bugun sog'liqni saqlash sohasida olib borilgan islohotlar natijasini odamlar o'z kundalik hayotida, turmushida his qilyapti va e'tirof etmoqda. Taqdimot davomida belgilab berilgan aniq vazifalar ijrosini o'z vaqtida ta'minlash biz, deputatlardan ham yakkilik va faollikni talab qiladi. Zotan, inson uchun uning sog'lig'idan ortiq boylik yo'q ekan, buning targ'iboti aholi, ayniqsa, yoshlar, xotin-qizlar o'rtasida kuchaytirilishi maqsadga muvofiqdir.

Muzaffara ABDIYEVA,
Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputati.

Davlat tibbiy sug'urtasi:

AHOLIDAN QO'SHIMCHA TO'LOV UNDIRILMAYDI



Sog'lom jamiyat, aholi salomatligi davlatning strategik maqsadi, milliy xavfsizlikning muhim shartidir. Chunki faqat sog'lom insongina kelajakka tirrak nigoh bilan boqishi, o'z oilasi bilan birgalikda tug'ilib o'sgan yurt taraqqiyoti yo'lida izlanishi, yangi-yangi g'oyalarni hayotga tatbiq etib, uning rivojiga munosib hissa qo'shishi mumkin.

Munosabat

Shu bois mamlakatimizda barcha soha qatori sog'liqni saqlash tizimini ham takomillashtirish va tubdan yaxshilash bo'yicha Prezidentimizning qator Farmon va qarorlari qabul qilinmoqda. Maqsad bitta – shifo istagan ko'ngillariga yo'l topish, ularga sifatlil tibbiy xizmatni tashkillashtirib berish, tizimda byurokratik to'siqlarni bartaraf etish.

Agar raqamlarga e'tibor beradigan bo'lsak, oxirgi yetti yilda sohaga ajratilayotgan mablag'lar sezilarli darajada oshdi. Birgina 2024-yilga kelib tibbiyot sohasiga budjetdan 33.4 trillion so'm yo'naltirish ko'zda tutilgan bo'lib, bu 2016-yildagiga nisbatan 6 barobar ko'pdir.

Ushbu sa'y-harakatlar natijasida aholiga tibbiy yordam ko'rsatish sifati, samaradorligi va qulayligi oshdi. Tibbiyot muassasalari tarmog'i kengayib, tibbiy xizmat aholiga

yanada yaqinlashtirildi. Ko'plab oilaviy poliklinika va shifokorlik punktlari qaytadan tashkil etilib, birlamchi bo'g'inda tibbiy profilaktika va patronaj xizmatining mutlaqo yangi tizimi joriy qilindi.

Shuningdek, aholi reproduktiv salomatligini mustahkamlash, onalik va bolalikni muhofaza etish bo'yicha qator maqsadli milliy dasturlar amalga oshirildi. Jumladan, onalar va bolalarga xizmat ko'rsatuvchi muassasalar negizida Respublika ixtisoslashtirilgan ona va bola salomatligi ilmiy-amaliy tibbiyot markazi va uning 14 ta filiali tashkil etilmoqda.

Inson salomatligi va uning turmush farovonligiga bo'lgan bunday e'tibor, tibbiy-sanitariya yordami mahalla, xonadonlarga tushirilgani tufayli shifo maskanlarida aholiga ko'rsatilayotgan tibbiy xizmat sifati oshib, hozirgi vaqtda birlamchi zarur dori-

Mehmet JENGIZ:

O'zbekiston — xorijiy investitsiyalarimiz geografiasining markazi

Bundan tashqari, qayta tiklanadigan energiya manbalaridan aliyuminiy ishlab chiqarishni yo'lga qo'ydik. Bu esa "yashil" texnologiyaga o'tish bo'yicha maqsadimizga erishish sari yanada yaqinlashiradi.

Turkiyada gidroelektr va quyosh energiyasidan birgalikda foydalaniladigan birinchi gibrid elektr stansiyasini bunyod etdik. Istanbul yangi aeroportiga salmoqli investitsiyalar kiritdik. Shu kunlarda yarim asrlik tajribamizni xorijda ham targ'ib etishga faol intilyapmiz. Yevropa va turkiy davlatlarga yirik miqdorda investitsiyalar kiritdik.

O'zbekiston bu geografiyada, ayniqsa, energetika sohasiga investitsiya kiritish bo'yicha bizning e'tibor markazimizga aylandi.

Ma'lumki, Toshkent va Sirdaryoda har birining quvvati 240 MVt bo'lgan ikkita elektr stansiyasiga investitsiya kiritishni yakunladik. Ayni paytda Jizzaxda o'rnatilgan quvvati 550 MVt bo'lgan uchinchi tabiiy gaz elektr stansiyasiga investitsiya yo'naltirish davom etmoqda. Ushbu loyiha amalga oshirilgach biz O'zbekistonda 1030 MVt ga teng quvvatga erishamiz.

Ta'kidlash kerakki, qisqa vaqtda, ya'ni uch yil davomida mamlakatimizning muhim elektr energiyasi ishlab chiqaruvchisiga aylandik. "Cengiz Holding" faoliyat yuritayotgan hududlarda odamlarga va jamiyatga foyda keltirish an'analari saqlab qolmoqda. O'zbekistonda ham bu an'anani davom ettiryapmiz. Biz, ayniqsa, mahalliy aholi bandligini ta'minlashga katta e'tibor qaratamiz. Toshkent va Sirdaryodagi obyektlarimizda band bo'lgan 193 nafar xodimning 108 nafari O'zbekiston fuqarolaridir. Loyihani Jizzaxda amalga oshirish jarayonida ishchilar soni 600 nafarga ko'payadi. Ularning aksariyati o'zbekistonlik do'stlarimiz bo'ladi.

– "Cengiz Holding" kompaniyasi mamlakatimiz bilan uzoq yillik hamkorlik tarixiga ega. O'zbekiston – Turkiya aloqalarini har tomonlama rivojlantirish yo'lidagi xizmatlarimiz yuksak baholanib, o'tgan yili mamlakatimizning yuksak davlat mukofotlaridan biri – "Do'stlik" ordeni bilan taqdirlangiz. O'zbekistondagi kelgusi rejalaringiz haqida so'zlab bersangiz. Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlar xorijlik investorlarga qanday ta'sir ko'rsatmoqda? Yurtimizdagi investitsiyaviy muhit sizga ma'qulmi?

– Darhaqiqat, O'zbekiston bilan chuqur aloqalarimiz bor. O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Janobi Oliyilari turk ishbiaronlari bilan tez-tez uchrashadi va o'z mamlakatiga investitsiya kiritish uchun barcha imkoniyatni ishga soladi. O'zbekiston rahbariyatining bizni har jihatdan qo'llab-quvvatlashini doimo his qilamiz. Buning uchun Prezident Janobi Oliyilariga minnatdorlik bildiraman. "Do'stlik" ordeni bilan taqdirlanganimiz uchun alohida hurmatimizni izzor etamiz.

O'zbekiston – biz uchun juda muhim davlat. An'analimiz, tariximiz va tilimiz mushtarak bo'lgan O'zbekiston energetika

infrauzulmasiga investitsiya kiritishni qo'llab-quvvatlab, mamlakatning energiya ta'minoti xavfsizligini ta'minlashga hissa qo'shmoqchimiz. Energiya ishlab chiqarish ma'lum bir nuqtada yetganda, o'z faoliyatimizni Turkiyadagi barcha investitsiyalarimizning diqqat markazida bo'lgan qayta tiklanadigan energiya sohasida kengaytirmoqchimiz.

Bundan tashqari, O'zbekistonda Toshkent va Samarqandni bog'laydigan avtomobil yo'li qurilishi loyihasi ustida ishlamoqdamiz. Ushbu loyihada ishtirok etishdan manfaatdormiz. Qurilish jabhasidagi tajribamizni O'zbekiston bilan bo'lishishdan mamnunmiz.

– Mamlakatimiz energetika sohasining rivojini qanday baholaysiz?

– Kelgusida ham O'zbekistonning energetika infratuzulmasini yangilash bo'yicha sa'y-harakatlarni qo'llab-quvvatlash va mavjud aloqalarni mustahkamlash niyatidamiz. O'zbekistonning energetika sohasiga yangi investitsiyalarni jalb etish rejalimiz bor. O'zbekiston katta tabiiy gaz zaxiralarga ega. Umumiy energiya iste'molining qariyb 85 foizi tabiiy gaz hisobiga qoplanadi.

Ma'lumki, so'nggi paytlarda mamlakatda energetika tizimiga investitsiyalarni jalb etish ishlar tubdan rivojlandi. Muhim energiya yetkazib beruvchilardan biri sifatida qayta tiklanadigan energiya manbalariga ham investitsiya kiritmoqchimiz. O'zbekiston kabi tilimiz va madaniyatimiz mushtarak bo'lgan qardosh mamlakatlar taraqqiyotiga hissa qo'shish bundan keyin ham ustuvor vazifamiz bo'lib qoladi.

– Yurtimizda bir necha bo'lgansiz. Aytinch, islom va jahon tamaddunining buyuk merosiga ega O'zbekiston sizda qanday taassurot qoldirdi? Umuman, mamlakatimizning qaysi jihatlari ko'proq manzur?

– O'zbekiston o'zining joylashuvi, tarixi, boy madaniy qadriyatlari va iqtisodiy salohiyati bilan Markaziy Osiyodagi eng muhim davlatlardan biri hisoblanadi. Samarqand, Buxoro, Xiva kabi tarixiy shaharlarning asrlar davomida turkiy islom sivilizatsiyasining beshigi bo'lib kelgan. Mehmondo'st o'zbek xalqi esa qudratli davlat timsolini ifodalaydi. Asrlar davomida o'zaro uyg'unlashgan tarix va madaniyatning ajoyib namunalari mamlakatni me'morchilik nuqtayi nazaridan butunlay o'zgacha ma'voga olib chiqqanini e'tirof etish kerak. Chindan ham O'zbekiston noyob mamlakat – boy oshxonasidan tortib, rang-barang shaharlari va hududlarigacha.

O'zbekiston mustaqilligini birinchi bo'lib tan olgan Turkiyaning bir fuqarosi va mamlakatimiz imkoniyatini yaqindan bilgan tabirkor sifatida "Cengiz Holding" oilasi nomidan samarali hamkorligimiz O'zbekistonning yanada rivojlanishi, taraqqiyoti va gullab-yashnashiga salmoqli hissa qo'shishiga ishonch bildiraman.

"Dunyo" AA.
Anqara



Bugungi davrda yirik qutblar o'rtasida yuz berayotgan turli anglashilmovchiliklar, murakkab geosiyosiy jarayonlar, biz va yon-atrofimizdagi davlatlar, ayniqsa, SHHT va MDH mamlakatlarining taqdiriga bevosita daxl qilayotgani masalaga jiddiy yondashuvni talab etmoqda.

Yuzaga kelgan o'zgarishlar qo'zgach qo'zgach o'zi mazkur davlatlarning ichki va tashqi xavfsizligi hamda suvereniteti uchun yangi xavf-xatarlarni shakllantirmoqda. Ming afsuski, bu kabi chigallik ISHID, "Al-Qoida" hamda boshqa turli jangari guruhlar tomonidan terrorchilik tahdidlari yuqori darajada bo'lgan hududlar uchun yanada keskin va turbulent vaziyatni vujudga keltirishi mumkin. Qora kuchlar zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari imkoniyatlaridan keng foydalanib, o'z saflariga ko'proq yoshlarni tortishga urinmoqda.

O'z nafaqat an'anaviy OAV, balki dunyoning barcha nuqtasida allaqachon urfga kirib bo'lgan ommaviy kommunikatsiya vositalarini batamom o'zlariniki qilishga intilmoqda. Yetakchi ijtimoiy tarmoqlar va messenjerlar terrorchilar va odam yollovchi (verbovkachi)larning targ'ibot faoliyatida asosiy vosita bo'layotgani taassuflanarlidir.

Xalqaro terrorchi guruhlar turli yetakchi mediakanallarda bu sohadagi

"O'zbekistonning Terrorizm va ekstremizmga qarshi kurashish bo'yicha milliy strategiyasi keng qamrovli, inklyuziv va tizimli yondashuvga asoslangan bo'lib, profilaktik va preventiv choralarini qo'llash hamda vaqtda amaliy javob qaytarishni o'zida mujassam etadi. Jamiyatda hamjihatlik muhitini mustahkamlash va ochiq muloqotni rivojlantirish, ayniqsa, ta'lim-tarbiya sohasini har tomonlama qo'llab-quvvatlash, ko'plab ish o'rinlarini yaratish va aholining ishonchli ijtimoiy himoyasini ta'minlash bu boradagi ustuvor yo'naltirishlar hisoblanadi."

faoliyatlarini ayyorona tarzda amalga oshirmoqda. Kezi kelganda shakl va usullarini tezkor o'zgartirib, yanada takomillashtirib, uni yangi shart-sharoitlarga moslashtirib olmoqda. G'arazli maqsadlarga yo'naltirilgan ekstremistik kontentlar, chaqiruvlar, davlatlar hamda g'oyaviy tuzoqdan iborat turlicha materiallarni tarqatishning eng zamonaviy, ayyorona usullarini o'zlashtirib, himoyasiz auditoriyani, ayniqsa, yoshlarni chalg'itishga urinmoqdalar. Xususan, uchinchi mamlakatlarida ishlayotgan mehnat muhojirlariga ta'sir o'tkazishda to'g'ri-to'g'ri yangicha texnologiyalar va usullarni qo'llashayotir.

Mana shunday sharoitda SHHTning Mintaqaviy aksilterror tuzilmasi (MATT)ning X xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyasi hamda MDHning terrorizm va ekstremizmga qarshi kurash bo'yicha ikkinchi konferensiyasining Toshkentda o'tkazilishi SHHT va MDH mamlakatida terrorizmga qarshi kurashda yagona yondashuvni ishlab chiqishni

talab etuvchi tahdidlar yaxshi anglanayotganidan dalolat beradi.

Xavfsizlikka tahdid solayotgan subyektlarning bugungi kunda shakl-shamoyili va turlari juda ko'p. Misol uchun, ayirmachi (separatist) guruhlar – o'z davlati yoki avtonomiyasiga ega bo'lishga urinadi va payt paylab harakatga tushadi. Biridaniga ayyuhannos solib, masalaga ko'pchilikning e'tiborini qaratadi. Ayrimlari bir paytning o'zida ham siyosiy, ham millatchilik maqsadlarini ko'zlaydi.

Keyingisi turli shakldagi diniy guruhlar shaklida maydonga chiqadi. O'z faoliyatini, asosan, boshqa dindagilarga qarshi kurashga yo'naltiradi. Bunga misol tariqasida Irlandiya terroristik guruhini keltirish mumkin. Ular katoliklardan iborat bo'lib, go'yoki o'zlarini kamsitilgan qilib ko'rsatib, boshqalardan o'ch olish payida yurishadi. Ular barcha teraktlarni protestantlar va Britaniya hukumatiga qarshi amalga oshiradi. Ushbu guruh a'zolari, avvalo, o'zlarining siyosiy maqsadi – Irlandiya va Shimoliy Irlandiyani birlashtirish masalasini o'rtaga qo'yadi. Ikkinchidan, ular Shimoliy Irlandiyaniyung Buyuk Britaniya tarkibidan chiqishini talab qiladi va diniy g'oya sifatida protestantlarning ustunligiga qarshi kurash olib boradi.

Yana bir zamonaviy yo'naltirishlardan biri – yollanma guruhlar. Hozirgi paytda dunyoning istalgan burchagiga katta pul evaziga jangari yetkazib beradigan, "verbovka"ni o'ziga biznes qilib olgan tashkilotlar talaygina. Masalan, fransuz milliy legionari. Ular jahonning deyarli barcha davlatlarida faoliyat olib boradi. Jumladan, MDH mamlakatlari va Rossiyada ham.

Zamonaviy terrorchilar puxta tashkil qilingan, yuqori texnik va texnologik vositalar bilan ta'minlangan bo'lib, ular professional jihatdan yaxshi tayyorlangan bo'ladi. Keyingi davrda terrorchilarning nafaqat milliy (millatchi) guruhlari, balki g'oyaviy birikkan guruhlari ham keng va tez tarqalmoqda. Bu esa oddiy millatchilikdan ham xavfliroq hodisadir. Yana bir jihati shundaki, terrorchilar tomonidan tobora samarali taktikalardan foydalanish amaliyoti ko'zga tashlanmoqda. Ayrim davlatlardagi mavjud kuchlar tomonidan esa ularga qarshi kurashda tajriba yetishmayapti. Vaholanki, terrorizm, taxminlarga ko'ra, kelgusi yigirma yil

Mamlakatimizda ekstremistik va terroristik mazmundagi materiallar joylashtirilgan internet saytlari, kanallar, profilarni aniqlash va ular faoliyatiga chek qo'yish yuzasidan mas'ul tashkilotlar qator ishlarni amalga oshirmoqda. Xususan, Din ishlari

Keyingi bir yil ichida milliy kibermakonda shiddatli ravishda kengayib borayotgan sun'iy intellekt yordamida ishlab chiqilgan feyk axborotlar vaziyatni yanada chigallashirmoqda. Aniqlik, ijtimoiy tarmoqdan kelgan har qanday yangilikning feyk yoki haqiqat ekanini aniqlash masalasi ko'ndalang turibdi. Chunki axborot sohasining o'zi allaqachon turli tashqi kuchlarning dezinformatsiya va misinformatsiya quroliga aylani bo'lgan. Bunday vaziyat yoshlarda mustaqil ravishda oqni qoradan ajratib olish ko'nikmalarini shakllantirishga, ya'ni media va axborot vosidonligini yanada oshirishga jiddiy e'tibor qaratishni taqozo etadi.

Beruniy ALIMOV,
sharhlovchi.

REKLAMA

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI TRANSPORT VAZIRLIGI

TOSHKENT DAVLAT TRANSPORT UNIVERSITETI

oliy o'quv yurtidan keyingi ta'lim institutiga 2025-yil uchun quyidagi ixtisosliklar bo'yicha qabul e'lon qiladi:

№	Ixtisoslik sh.	Ixtisoslik nomi	Doktorantura	Tayanch doktorantura	DSc maqsadli	PhD maqsadli	Stajor-tadqiqotch
1	01.01.01.	Matematik analiz					1
2	05.01.02	Tizimli tahlil, boshqaruv va axborotni qayta ishlash		1			
3	05.01.06	Hisoblash texnikasi va boshqaruv tizimlarining elementlari va qurilmalari	1	3			
4	05.01.07	Matematik modelashlash. Sonli usullar va dasturlar majmui		6			
5	05.02.03	Texnologik mashinalar. Robotlar, mexatronika va robototexnika tizimlari	1	4			
6	05.02.08	Yer usti majmualari va uchish apparatlari		2			
7	05.08.02	Temir yo'llar va yo'l xo'jaligi	1	3			
8	05.08.03	Temir yo'l transportini ishlatish	2	10			1
9	05.08.04	Navigatsiya va havoyo'llari harakatini boshqarish		5			
10	05.08.05	Temir yo'llarning harakatlanuvchi tarkibi, poyezdlarni tortish va elektrlashtirish	1	14			
11	05.08.06	G'ildirakli va gusenitsali mashinalar va ularni ishlatish		10			
12	05.09.02	Asoslar, poydevor va yer osti inshootlari. Ko'priklar va transport tonnellari. Yo'llar, metropolitenlar		17			
13	05.09.05	Qurilish materiallari va buyumlari	1	4		4	
14	05.09.07	Gidravlika va muhandislik gidrologiyasi	1	4		2	
15	05.10.01	Mehnatni muhofaza qilish va inson faoliyatini xavfsizligi	1	4			
16	08.00.03	Sanoat iqtisodiyoti	1	4			1
17	08.00.11	Marketing		5			1
18	08.00.13	Menejment		6			
19	09.00.04	Ijtimoiy falsafa	2	4		1	
20	10.00.06	Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimonshunoslik		10			1
21	05.02.01	Mashinasozlikda materialshunoslik. Quymachilik. Metallarga termik va bosim ostida ishlov berish.		4			
		Jami	12	120		7	5

Talab qilinadigan hujjatlar:

Tayanch doktoranturaga:

- ariza;
- qisqacha biografik ma'lumotnoma;
- mehnat daftarchasining belgilangan tartibda tasdiqlangan nusxasi (ishlayotgan talabgorlar uchun);
- oliy ta'lim muassasasi magistraturasi diplomi, oliy ma'lumot (mutaxassislik dasturlari bo'yicha) to'g'risidagi diplom nusxasi;
- nashr etilgan ilmiy ishlar ro'yxati,

shuningdek, ularning nusxalari (kamida uchta);

- yetakchi olimlardan birini ilmiy maslahatchi sifatida belgilash yuzasidan yozma roziligi;
- xorijiy tillarni bilish bo'yicha milliy yoki unga mos darajadagi xalqaro sertifikat;
- O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Davlat stipendiyasi sohiblari tegishli hujjat nusxasini taqdim etadilar.

Doktoranturaga:

- ariza;
- qisqacha biografik ma'lumotnoma;
- mehnat daftarchasining belgilangan tartibda tasdiqlangan nusxasi;
- oliy ma'lumot, fan nomzodi yoxud falsafa doktori (PhD) ilmiy darajaga ega bo'lganligi to'g'risidagi diplom nusxasi;

- tadqiqot mavzusi bo'yicha ilmiy ma'ruza va fan doktori (DSc) ilmiy darajasini olish uchun tayyorlangan doktorlik dissertatsiyasi rejasining mufassal loyihasi;
- xorijiy tillarni bilish bo'yicha milliy yoki unga mos darajadagi xalqaro sertifikat;
- nashr etilgan ilmiy ishlar ro'yxati, shuningdek, ularning nusxalari.

Hujjatlar e'lon chiqqan kundan boshlab joriy yilning 15-oktabrigacha qabul qilinadi.

Manzil: Toshkent shahri, Temiryo'lchilar ko'chasi, 1-uy, 379-xona
Telefonlar: 71-299-01-89; 71-299-00-49.

Shu yilning 1-avgust holatidagi ma'lumotlarga ko'ra, yurtimizda 43 293 ta oilaviy korxonalar faoliyat yuritmoqda.

XALQIMIZ HAYOTIDA BEQIYOS O'RIN TUTADIGAN QADRIYAT

Yaqinda yurtimizning barcha hududida "Bir bo'lsak - yagona xalqimiz, birlashsak - Vatanimiz!" g'oyasi ostida davlat mustaqilligining 33 yillik shodiyonalari keng nishonlandi.

Istiqlol - O'zbekiston xalqi erishgan eng ulug' ne'mat. Mustaqillik - bu hurlik, erkin va farovon hayot.

Bugun aholisi ko'p 40 ta davlatdan biri bo'lmish O'zbekiston - dunyo nigohida!

Nuqtai nazar

Xalqimizning fidokorona mehnati, yoshlarimiz g'ayrati va shijoati bilan Vatanimizning shon-shuhrati olam uzra keng yoyilmoqda. Bu yutuqlar, albatta, bizga erangi kunimiz - erkin va farovon kelajagimizni o'z qo'limgiz bilan buyud etish uchun zamin yaratmoqda.

Agar yaqin tarixga nazar salsak, 1991 - 2016-yillar milliy tiklanish davri bo'lganini, 2017-yildan boshlab esa jadallik bilan milliy yuksalish sari borayotganimizni xalqimiz, dunyo e'tirof etyapti.

Mustaqillik deganda, faqat ma'lum bir mintaqaning chegarasi, boshqaruvi emas, balki har bir inson mustaqil hayotini tushunamiz. Chunki bu barchamizning hayotimizga, jamiyat hayotidagi faol ishtirokimizga bog'liq ne'mat. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning "Inson ozodligi, erkinligi, o'ziga ixtiyoriyligi - har narsadan ustundir!" deya olib borayotgan islohotlari, davlat, jamiyatning barcha mexanizmi insonning mustaqil, farovon hayotiga xizmat qilayotir. Xususan, kundalik hayotimizda "Inson qadri uchun", "Davlat - inson uchun", "Inson - jamiyat - davlat", "Islohot - islohot uchun emas, avvalo inson uchun", "Inson qadri uchun, el-yurt baxti uchun!" kabi ulug'vor g'oyalari har bir fuqaroning hayotida aks etmoqda.

Barchamizga yaxshi ayonki, ma'lum bir davrlarda "inson mustaqilligi"

tushunchasi cheklangan edi. Masalan, sho'rolar davrida yurtimiz sobiq ittifoq "paxta yakkahokimligi"ga yuz tutgan, bu, o'z navbatida, xalqimizning "qora dog'i" bo'lib kelgan. Hatto mustaqillikning o'tgan 25 yilida ham maqtal bo'lgan qo'vuqchidan tortib talaba, o'qituvchi, shifokor, harbiylar va boshqa soha vakillari uch oylab paxta dalasidan beri kelgan. 2016-yildan ushbu majburlorlarga chek qo'yildi. Bu esa xalqimiz orzularining ro'yobi bo'ldi.

Ikkinchidan, yopiq mavzulardan biri "kambag'allik" tushunchasi edi. Bu toifadagi insonlar soni ko'p va ularning muammolarini yakka tartibda va aniq manzilli ravishda bartaraf etish dasturlari qabul qilinmagan edi. Kambag'al toifaga kiruvchilarning hayoti hech kimga qiziq emas edi. Rahbar xodimlar o'z xonasidan topshiriq va ma'lumot almashardi. So'nggi yillarda asl haqiqat ochiq tan olinadi - kambag'allar soni aniqlanib, bu toifadagi hamyurtlarimiz sonini alohida dasturlar asosida 11 foizga kamaytirishga erishildi. Vazirlardan tortib xodimlarga mahallab va xonadonbay tizimi orqali ishlashga o'tildi. Fuqarolarni kambag'allikdan chiqarish uchun imtiyozli mablag'lar yo'naltirilmog'ida. Bunga Sayxunobod, G'ijduvon, Uychi, Zarbdor tajribalarini misol qilib keltirish o'rinni.

Uchinchidan, yurtimizda pul aylanmasi va muomalasi bilan bog'liq



muammolar o'z yechimini topmagan edi. Oylik maoshlar nogironligi bor yoki nafaqada demay, yoppasiga plastik kartalarga tashlab berilardi. Bozorlarda va rastalarda xarid uchun terminal yoki naqdlashtirish uchun bankomatlar tashkil qilinmagan, fuqarolar o'z pulini boshqa "tadbirkor" orqali 20 foiz ushlangan holda naqdlashtirishga to'g'ri keldi. Bugun fuqarolarimiz o'z pulini istalgan vaqtda, xohlagan tartibda muomalaga yo'naltiradi. Asosiysi "qora bozor"ga chek qo'yildi.

To'rtinchidan, 2016-yilga qadar yurtimizda 77 ta oliygoh bor edi va bu aholining oliy ta'lim olishga bo'lgan xohishi uchun yetarli emasdi. Natijada minglab yoshlar yashirin yo'llar bilan qo'shni respublikalarda nomigagina mavjud, sifatsiz ta'lim beradigan xususiy oliygohlarga mablag' sarf qilib o'qisa-da, diplomni yurtimizda ishlata olmaslik, o'qishni qing'ir yo'llar bilan ko'chirish payida bo'lish, noto'g'ri g'oyalari ta'siriga tushib qolish kabi ko'plab muammolar yuzaga kelgan. Bugungi kunda oliy ta'limga yangicha yondashuv evaziga barcha yoshlarga o'zimizda o'qish imkoniyati yaratildi. Hozirgi kunda 212 ta davlat va nodavlat oliy ta'lim muassasalarida yoshlarga sifati ta'lim berib borilmoqda. Oliy ta'lim qamrovi ham 9 foizdan 44 foizga ko'tarildi.

Umuman, bugungi kunda jonajon yurtimizda inson mustaqilligi, uning farovon hayoti uchun, orzu-intilishlarini o'zi istaganidek boshqarishi uchun barcha imkoniyat yaratilgan.

Davlatimiz rahbarining eng ulug', eng aziz bayram - mustaqilligimizning o'ttiz uch yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi nutqini katta hayajon bilan tinglarkanmiz, unda yangi O'zbekiston bugun dunyoga yuzlashgani, hech bir mamlakatdan rivojlanishda ortda qolmay shiddat bilan odimlab borayotgani va buning uchun katta mehnat qilinayotgani alohida ta'kidlab o'tildi. Ayniqsa, erishilayotgan natijalar bilan birga kelgusida yangi O'zbekistonni barpo etishda asosiy e'tibor beshta ustuvor yo'nalishga qaratilishi xalqimiz dilidagi gap bo'ldi. Ya'ni sifati ta'lim tizimini yo'lga qo'yish, biznesni rivojlantirish, korrupsiyadan xoli, adolatli sud tizimini yaratish, sog'liqni saqlash sohasini tubdan yaxshilash, ekologik barqarorlikni ta'minlashdan iboratligi aytiladi. Ayni chog'da "Muammolarimizning yechimi, savollarimizning javobi faqat va faqat ta'limga. Hamma eshiklarni ochadigan kalit ham - faqat va faqat ta'lim va tarbiyadir", deya ta'kidlanishi xalqimizning yangi maqsadlar sari intilishiga zo'r turtki bo'ldi, desak, aslo mubolag'a bo'lmaydi.

Shunday ekan, bundan buyon ham yurtimizda yashovchi har bir fuqaro ijtimoiy kelib chiqishi, millati va tilidan qat'i nazar, shu Vatan istiqboli, ravnaqi yo'lida birlashishi kerak. Zero, Prezidentimizning "Umumiy maqsadlarimiz yo'lida milliy jipslik, har bir ishni ilm, aql va ma'rifat bilan, xalq bilan kengashgan holda amalga oshirish, faqat va faqat oldinga qarab borish bugungi hayotimiz va faoliyatimizning kundalik qoidasiga aylanishi lozim", degan dasturlamal fikri barchamizning hayotiy shiorimizga aylanishi shart.

Dunyo tajribalarini o'rganish, jiddiy tahlillar, katta mehnat, uzoqni o'yab qilnayotgan izchil islohotlar tufayli bugun katta marralar zabt etilmoqda. Shu tufayli Vatanimiz dunyoga, dunyo esa yurtimizga keng ochilmoqda. Mintaqamiz va butun jahonda do'stlarimiz, hamkorlarimiz ko'paymoqda. Aholimiz o'z orzu-maqsadlariga oilaviy, mahalla hamjihatligida erishishga intilmoqda. Deylik, birgina "Open budjet" tizimining joriy qilinishi va unda mahalla, tashkilot, muassasalarning bir musht bo'lib maqsad sari intilishini ko'rish qanchalik quvonarli.

Yana bir gap. Ilgari yoshlarimiz bir oliygohga hujjat topshirish uchun ham ko'p ovora bo'lardi. Bugun esa abituriyent uyidan turib dunyoning bir emas, besh emas, o'ndan ortiq eng nufuzli oliygohlariga talablikka qabul qilnayotganini ko'rish qanchalik quvonarli!

Bugun mamlakatimiz dunyoda tom ma'noda "Yangi O'zbekiston" degan maqomda bo'y ko'rsatar ekan, albatta, biron-bir yutuq, muvaffaqiyatga o'z-o'zidan erishilmasligi ayon haqiqat. Bu - "Inson qadri uchun, el-yurt baxti uchun!" g'oyasi ostida xalqning ravnaqi, farovonligiga xizmat qiluvchi yirik dasturlar, yaratib berilgan imkoniyatlar va fidokorona mehnat mahsulidir.

Obidjon HAMIDOV,
Buxoro davlat universiteti rektori.

YANGILIKLAR xabarlar

TAFSILOTLAR

Yo'lovchi reyslarni qabul qilish boshlandi

Shahrisabz aeroporti hududida mavjud yo'lovchi terminal binosi rekonstruksiya qilindi.



Bu haqda Transport vazirligi ma'lumot berdi. Xabarga ko'ra uchish-qo'nish va burilish yo'lga kapital ta'mirlangan. Xususan, infratuzilma obyektlari, muhandislik-kommunikatsiya tarmoqlari, meteorologik parvozlar radiotexnik ta'minlash uskunalari rekonstruksiya qilindi. Ayni chog'da Toshkent - Shahrisabz - Toshkent yo'nalishida "Silk-avia" aviakompaniyasi "L-410" havo kemasida muntazam aviaqatnovlarni yo'lga qo'ydi.

Aksikorrupsiya sohasida mediaforum

Toshkent shahrida ilk marotaba aksikorrupsiya sohasida xalqaro mediaforum bo'lib o'tdi. Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi tomonidan BMT Taraqqiyot dasturi va boshqa tashkilotlar hamkorligida o'tkazilgan ushbu tadbir mamlakatimizda olib borilayotgan qat'i'y va izchil aksikorrupsiya islohotlari, ortga qaytmas tus olgan ochiq siyosati va ularning amaliy natijalariga bag'ishlangan taqdimotlar qilindi.

Ma'ruzachilar mazkur mediaforum ommaviy axborot vositalari, hukumat va fuqarolik jamiyati vakillari uchun korrupsiyaga qarshi kurashda sa'y-harakatlar va imkoniyatlarni birlashtirishda muhim platformaga aylanishini qayd etdi.

Yashil bog' loyihasi taqdimoti

Poytaxtimizning Yunusobod tumanida Toshkent astronomik observatoriyasi hududini obodonlashtirish va umumiy yashil bog' yaratish masalasiga bag'ishlangan jamoatchilik eshituvlari bo'lib o'tdi.



Ta'kidlanganidek, yashil bog' barpo etish loyihasi konsepsiyasi markaziy maydon, yashil ochiq amfiteatr, manzarali ko'l, interfaol o'yinlar maydoni, kutubxona, atirgul bog'i, badiiy galereya, sharshara, kitobxonlik bog'i, bolalar maydonchasi, shaxmat bog'i va tabiat qo'nyida dam olish uchun mo'ljallangan boshqa inshootlarni obodonlashtirishni o'z ichiga olgan.

Loyihada bog'ning asosiy elementiga aylanaadigan keng ko'kalamzorlashtirish hududini yaratishga alohida e'tibor qaratilgan. Noyob va mahalliy turdagi daraxt va butalarni ekish ko'zda tutilgan bo'lib, bu nafaqat hududni obodonlashtirish, balki shahardagi ekologik vaziyatni yaxshilashga ham xizmat qiladi.

Hamyurtimiz xalqaro tanlov g'olibi

Seul shahrida koreys tili va madaniyati xalqaro tanlovi - "Quiz on Korea - 2024"ning final bosqichi o'tkazildi.

"Dunyo" axborot agentligi xabariga ko'ra Koreya Respublikasi Tashqi ishlar vazirligi va "KBS" markaziy televideniyesi hamkorligida tashkil etilgan ushbu tanlovda 21 davlatdan eng iqtidorli talabalar qatnashib, ular Janubiy Koreya tarixi, iqtisodiyoti, jamiyati, tili hamda madaniyati haqidagi bilimlarini sinovdan o'tkazdi.

E'tiborlisi, tadbirning final bosqichida hamyurtimiz - Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti talabasi Mohira Ergasheva 1-o'rinni qo'lga kiritdi va taqdirlandi.

"Xalq so'zi".

REKLAMA

TOSHKENT TO'QIMACHILIK VA YENIGIL SANOAT INSTITUTI

OLY O'QUV YURTIDAN KEYINGI TA'LIM INSTITUTIGA 2025-YIL UCHUN
QUYIDAGI IXTISOSLIKLAR BO'YICHA QABUL E'LON QILADI:

"TAYANCH DOKTORANTURA" (PhD)

02.00.06	- Yuqori molekulyar birikmalar	- 2 ta o'rin
05.01.08	- Texnologik jarayonlar va ishlab chiqarishni avtomatlashtirish va boshqarish	- 2 ta o'rin
05.02.03	- Texnologik mashinalar. Robotlar, mexatronika va robototexnika tizimlari	- 2 ta o'rin
05.06.01	- To'qimachilik va yengil sanoat ishlab chiqarishlari materialshunosligi	- 3 ta o'rin
05.06.02	- To'qimachilik materiallari texnologiyasi va xomashyoga dastlabki ishlov berish	- 12 ta o'rin
05.06.04	- Tikuvchilik buyumlari texnologiyasi va kostyum dizayni	- 6 ta o'rin
08.00.07	- Moliya, pul muomalasi va kredit	- 3 ta o'rin
08.00.13	- Menejment	- 3 ta o'rin

"DOKTORANTURA" (DSc)

05.02.03	- Texnologik mashinalar. Robotlar, mexatronika va robototexnika tizimlari	- 1 ta o'rin
05.06.02	- To'qimachilik materiallari texnologiyasi va xomashyoga dastlabki ishlov berish	- 2 ta o'rin
05.06.04	- Tikuvchilik buyumlari texnologiyasi va kostyum dizayni	- 1 ta o'rin
08.00.13	- Menejment	- 1 ta o'rin

"STAJOR-TADQIQOTCHILIK"

05.02.03	-Texnologik mashinalar. Robotlar, mexatronika va robototexnika tizimlari	- 1 ta o'rin
05.06.01	- To'qimachilik va yengil sanoat ishlab chiqarishlari materialshunosligi	- 1 ta o'rin
05.06.02	- To'qimachilik materiallari texnologiyasi va xomashyoga dastlabki ishlov berish	- 1 ta o'rin

"TAYANCH DOKTORANTURA" (PhD) va "DOKTORANTURA" (DSc)ga talabgorlar <https://daraja.ilmiy.uz/> sayti orqali onlayn tarzda ro'yxatdan o'tadi va quyidagi hujjatlarni taqdim etadi:

- ariza;
- qisqacha biografiik ma'lumotnoma;
- mehnat daftarchasining belgilangan tartibda tasdiqlangan nusxasi;
- oliy ma'lumot, fan nomzodi yoki falsafa doktori (PhD) ilmiy darajaga ega bo'lganligi to'g'risidagi diplom nusxasi (DSc ga talabgorlar uchun);
- oliy ta'lim muassasasi magistraturasi diplomi, oliy ma'lumot to'g'risidagi diplom nusxasi ilovasi bilan (PhD ga talabgorlar uchun);
- nashr etilgan ilmiy ishlar ro'yxati, shuningdek, ularning nusxalari;
- O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Davlat stipendiyasi sohiblaridan tegishli hujjat nusxasi (PhD ga talabgorlar uchun);
- pasport nusxasi;
- Xorijiy tilni bilish darajasini tasdiqlovchi («B1» darajadagi milliy yoki unga mos darajadagi xalqaro sertifikat) sertifikat nusxasi talab etiladi.

Tayanch doktoranturaga talabgorlar quyidagi fanlardan kirish imtihonlarini topshiradi:

- mutaxassislik.

Hujjatlarni onlayn ro'yxatdan o'tkazish tartibi to'g'risida <https://daraja.ilmiy.uz/> saytidagi yo'riqnoma orqali tanishish mumkin.

Hujjatlarni qabul qilish muddati 2024-yil 15-sentabrdan 15-oktabrgacha.

Murojaat uchun manzil: Toshkent shahri, Shohjahon ko'chasi, 5-uy,

Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat institutining 5-binosi, 202-xona,

telefonlar: 71-253-08-08, 71-253-61-05, 90-808-27-81.

Toshkent shahrida 250 o'rinli Innovatsion maktabgacha ta'lim muassasasi qurilishi boshlandi.

Xalq so'zi Narodnoe slovo

MUASSISLAR:
O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi
Qonunchilik palatasi Kengashi
O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi
Senati Kengashi

Bosh muharrir O'tkir RAHMAT

2020-yil 25-martda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligida 0001-raqam bilan ro'yxatga olingan. Nashr indeksi - 229. Buyurtma G-942. 12 918 nusxada bosildi. Hajmi - 2 taboq. Ofset usulida bosilgan. Qog'oz bichimi A-2. Bahosi kelishilgan narxda.

Gazetamiz haqidagi ma'lumotlarni yuklab olish uchun QR-kodni telefoningiz orqali skaner qiling.



TELEFONLAR:

Devonxona 71-259-74-51; kotibiyat 71-259-74-53;
e'lonlar 71-259-74-55.



Tahriyrga kelgan qo'lyozmalar taqzir qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.
Gazetaning yetkazib berilishi uchun ohunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.
Gazeta tahriyriyat kompyuter markazida terildi hamda operator A. Ismailov tomonidan sahifalandi.
Gazetaning poligrafik jihatdan sifati chop etilishiga "Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi mas'ul.
Bosmaxona telefon: 71-233-11-07.

MANZILIMIZ:
100066,
Toshkent shahri,
Islom Karimov ko'chasi, 55-uy.
Navbatchi muharrir S. Mamirov.
Musahhih Sh. Mashrabboyev.

"Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasi. Korxonada manzil:
Buyuk Turon ko'chasi, 41. O'ZA yakuni - 21.05 Topshirildi - 00.35 1 2 3 4 5 6